

MAMLAKATDA AHOLINI IJTIMOIIY HIMOYA QILISHNING MOLIVAVIY MANBALARI VA TASHKILIIY-HUQUQIIY ASOSLARI.

Sherjonov Sherjon Alijan o'g'li

Ma'mun universiteti "Iqtisodiyot" kafedrasi kata o'qituvchisi

Annotatsiya: Maqola ijtimoiy himoyaning jamiyatning barqarorligi, farovonligi va inson huquqlarini himoya qilishdagi ahamiyatini ta'kidlaydi. Shuningdek, ijtimoiy himoya tizimlarini rivojlantirishning kelajakdagi istiqbollari, jumladan, raqamlashtirish, shaxsiylashtirilgan yordam dasturlari, xalqaro hamkorlik va ijtimoiy innovatsiyalar muhokama qilinadi.

Kalit so'zlar: *ijtimoiy himoya, muhtoj aholi, nogironlar, keksalar, kam ta'minlangan oilalar, qochqinlar, ijtimoiy adolat, raqamlashtirish, shaxsiylashtirilgan yordam.*

Abstract: *The article emphasizes the importance of social protection in the stability, well-being of society and the protection of human rights. It also discusses future prospects for the development of social protection systems, including digitalization, personalized assistance programs, international cooperation and social innovations.*

Keywords: *social protection, vulnerable populations, people with disabilities, elderly people, low-income families, refugees, social justice, digitalization, personalized assistance.*

Аннотация: *В статье подчеркивается значение социальной защиты в стабильности общества, благосостоянии и защите прав человека. Также обсуждаются будущие перспективы развития систем социальной защиты, включая цифровизацию, программы персонализированной помощи, международное сотрудничество и социальные инновации.*

Ключевые слова: *социальная защита, нуждающееся население, инвалиды, пожилые люди, малообеспеченные семьи, беженцы, социальная справедливость, цифровизация, персонализированная помощь.*

O'zbekiston Respublikasida so'nggi yillarda aholining ijtimoiy muhtoj qatlamini moliyaviy va moddiy qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish, davlat budjetidan ijtimoiy himoya sohasiga ajratiladigan mablag'lar miqdorini oshirish, ijtimoiy himoya dasturlari qamrovini kengaytirish va kam ta'minlangan oilalarga manzilli moliyaviy yordam ko'rsatishga qaratilgan qo'shimcha mexanizmlarni joriy qilish yo'nalishlarida izchil islohotlar amalga oshirilmoqda. Islohotlar natijasi o'laroq, O'zbekiston Respublikasi aholisini ijtimoiy himoya qilish strategiyasi ishlab chiqildi hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Ijtimoiy himoya milliy agentligi tashkil etildi.

Mamlakatimiz iqtisodiyotini rivojlantirish va liberallashtirish sharoitida aholi daromadlari tarkibida qator o'zgarishlar sodir bo'ldi.

Birinchidan, daromad shakllari o'zgardi, ya'ni uning an'anaviy turlari (ish haqi, pensiya, nafaqa, stipendiya) qatoriga mutlaqo yangilari – tadbirkorlik faoliyatidan, (ko'chmas) mulkdan, qimmatli qog'ozlardan, chet el valutasidan keladigan daromadlar qo'shildi.

Ikkinchidan, daromadlarning tarkibiy qismlari miqdor va sifat jihatidan o'zgardi, bu borada fuqaro ixtiyoridagi haqiqiy daromadlar, daromad tanqisligi, tirikchilik minimumi, qashshoqlik darajasi, oila pul daromadlarining xarid qobiliyati kabi tushuncha va kategoriyalar paydo bo'ldi.

Uchinchidan, daromadlardan foydalanishning yangi yo'nalishi paydo bo'ldi: majburiy to'lovlar va badallar, chet el valutasini, qimmatli qog'ozlar va shaxsiy mulkni sotib olish uchun xarajatlar, tijorat banklariga qo'yilmalar shular jumlasidandir. Ta'kidlash joizki, aholi daromadlarining darajasi qanchalik yuqori bo'lsa, uning zaruriy ehtiyojini qondirish, salomatligini saqlash, dam olishini tashkil etish, ma'lumot olishi, bo'sh vaqtlarini madaniy tarzda o'tkazishi bo'yicha imkoniyatlari shunchalik ko'p bo'ladi.

Aholining turmush darajasi uning hayot kechirishi uchun zarur bo'lgan moddiy va ma'naviy ne'matlar bilan ta'minlanishi hamda kishilar ehtiyojining bu ne'matlar bilan qondirilishi darajasi orqali namoyon bo'ladi. Shu bilan birga, aholi turmush daraja-sining BMT tomonidan tavsiya etilgan ko'rsatkichlari tizimi o'z ichiga quyidagi guruhlarini oladi:

- tug'ilish va o'lish darajasi hamda boshqa demografik ko'rsatkichlar;
- hayot kechirishning sanitar-gigiena jihatidan sharoitlari;
- oziq-ovqat tovarlarini iste'mol qilish darajasi; turar joy sharoitlari;
- ma'lumot va madaniyat; mehnat qilish va bandlik sharoitlari;
- aholining daromadlari va xarajatlari;
- hayot kechirish qiymati va iste'mol narxlari;
- transport vositalari;
- dam olishni tashkil etish;
- ijtimoiy ta'minot.

Aholining turmush darajasi ma'lum bir turlarga qarab tasniflanadi.

farovon daraja

- insonning jismoniy va aqliy kuch-quvvatini to'la tiklash uchun qulay sharoitlarni ta'minlaydigan ne'matlardan foydalanish

normal daraja

- insonning jismoniy va aqliy kuch-quvvatini to'la tiklash uchun qulay sharoitlarni ta'minlaydigan ilmiy asoslangan me'yorlar bo'yicha oqilona iste'mol qilish

kambag'allik

- mehnat uchun resurslarni qayta yaratishning quyi chegarasi sifatidagi ish qobiliyatini saqlash darajasida ne'matlarni iste'mol qilish

qashshoqlik

iste'mol qilinishi insonning yashash qobiliyatini saqlash imkoniyatinigina beradigan ne'matlar va xizmatlarning biologik mezonlar bo'yicha yo'l qo'yiladigan minimal turlarini iste'mol qilishdir

1-rasm. Aholini turmush darajasini ehtiyojlarni qondirish darajasiga qarab tasniflanishi

Aholining ijtimoiy farovonligi mamlakatda olib borilayotgan ijtimoiy siyosatga, uning yo'nalishlari va tanlangan ustuvorliklar ko'lamiga bog'liq bo'ladi. Odatda, ijtimoiy siyosat quyidagi asosiy yo'nalishlarda olib boriladi:

- aholini ijtimoiy himoya qilish;
- ijtimoiy ta'minot;
- davlat ijtimoiy kafolatlarini ta'minlash.

Ijtimoiy himoya - o'ziga bog'liq bo'lmagan ravishda ijtimoiy muhofazaga muhtoj fuqarolarga nisbatan ko'rsatiladigan ijtimoiy yordam shakli bo'lib, kam ta'minlangan aholi qatlamlariga ko'rsatiladigan xizmatlar, nafaqalar va imtiyozlarni ko'zda tutadi. Ijtimoiy himoya tadbirlari yordamida aholining umumjamiyat ishlab chiqarish jarayonida qanday qatnashishidan qat'i nazar, aholining ma'lum tabaqalari turmush darajasini birmuncha (vaqtinchalik yoki doimiy) yaxshilashga erishiladi. Bu maqsadlardagi xarajatlarning aksariyati davlat budjeti mablag'lari hisobidan moliyalashtiriladi, shuningdek, mulkchilik shaklidan qat'iy nazar, korxona, muassasa va tashkilotlarning o'z mablag'lari hisobidan ham amalga oshiriladi. Bugungi kunda quyidagilar ijtimoiy yordam tizimini moliyaviy va moddiy jihatdan qo'shimcha tarzda qo'llab-quvvatlamoda:

– o‘z mablag‘lari va jamg‘armalari hisobidan o‘z xodimlariga ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash maqsadlarida moliyaviy yordam to‘layotgan va turli imtiyozlar berayotgan korxonalar;

– jamoat tashkilotlari;

– kasaba uyushmalari, nuroniylar, nogironlar jamiyatlari va boshqalar.

Ijtimoiy ta‘minot - fuqarolarning qarilikda, kasallik ro‘y berganda, mehnat qobiliyatini vaqtinchalik yoki butunlay yo‘qotganda, boquvchisini yo‘qotganda, shuningdek, uyda ijtimoiy yordam ko‘rsatish davlat tizimidir. Ijtimoiy ta‘minotning markazida pensiya ta‘minoti yotadi (Butun dunyoda ijtimoiy ta‘minot deganda pensiya ta‘minoti tushuniladi). Bizning respublikamizda ijtimoiy ta‘minot quyidagi manbalardan amalga oshiriladi:

– davlat ijtimoiy sug‘urtasi hisobidan shakllanadigan Pensiya jamg‘armasi;

– davlat ijtimoiy sug‘urtasining bir qismini yo‘naltirish hisobidan shakllanadigan Bandlikka ko‘maklashish jamg‘armasi;

– davlat ijtimoiy sug‘urtasining bir qismini yo‘naltirish hisobidan shakllanadigan Kasaba uyushmalarining mablag‘lari;

– davlat budjeti.

Davlat ijtimoiy sug‘urtasi fuqarolarning zarur turmush darajasini kafo-latlaydi. U majburiy bo‘lib, ish beruvchilar va mehnatkashlarning sug‘urta badallari hisobidan Pensiya fondi, Bandlik fondi va Kasaba uyushmalari mablag‘larining shakllanishiga asos bo‘ladi. Davlat ijtimoiy kafolatlarini ta‘minlash deganda fuqarolarning Konstitutsiya bilan kafolatlangan turli ijtimoiy xizmatlardan to‘laonli foydalanish huquqlarini ta‘minlash tushuniladi. Bu huquqlar ta‘lim olish, tibbiyot xizmatlaridan, fan, madaniyat yutuqlaridan foydalanish, shuningdek, turar joyga ega bo‘lish bilan bog‘liq fuqarolik huquqlari bo‘lib, ularni moddiy va moliyaviy jihatdan ta‘minlash esa mamlakatda yaratilgan milliy daromadni qayta taqsimlash asosida ijtimoiy yo‘naltirilgan jamg‘armalarni shakllantirish, tegishli qo‘shimcha moliyaviy manbalarni qidirib topish, bu maqsadlarga korxona va tashkilotlarning ortiqcha pul resurslarini safarbar etish mexanizmlarini ishlab chiqish, ijtimoiy sohalar va ularning moddiy-moliyaviy ta‘minotiga xorijiy hamkorlar, xalqaro tashkilotlar va boshqa moliya-kredit institutlarining e‘tiborini qaratish orqali amalga oshiriladi.

Bugungi kunda mamlakatimizda aholining ijtimoiy ta‘minotini yaxshilash, ijtimoiy xizmatlar sifatini oshirish, ijtimoiy yordamning aniq manzilli bo‘lishini ta‘minlash, ijtimoiy ta‘minot borasida xalqaro hamkorlikni yo‘lga qo‘yish va mustahkamlash kabi o‘ta muhim tadbirlarning huquqiy, tashkiliy, iqtisodiy va moliyaviy asoslari yaratilgan va jamiyat oldida turgan ijtimoiy ustuvorliklardan kelib chiqqan holda takomillashib bormoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ – 4611 sonli qarori. 24.02.2020 “Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”.
2. Шержонов, Ш. (2023). ИЖТИМОЙ ҲИМОЯ ТИЗИМИНИ ЯХШИЛАШДА БЮДЖЕТ МАБЛАҒЛАРИ НАТИЖАВИЙЛИГИНИ ТАЪМИНЛАШ ЙЎЛЛАРИ. *Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil*, 1(6), 261-269.
3. Sherjanov, S. (2022). O'zbekiston aholisini ijtimoiy himoya qilish strategiyasi. *Eurasian Journal of Law, Finance and Applied Sciences*, 2(13), 132-138.
4. Bakberganovich, S. A. (2022). Foreign experience of increasing local budget income. *Web of Scientist: International Scientific Research Journal*, 3(10), 436-438.
5. Шержонов, Шержон. "ИЖТИМОЙ СУҒУРТА ОРҚАЛИ АҲОЛИНИ ИЖТИМОЙ ҲИМОЯ ҚИЛИШ." *Nashrlar* (2024): 102-103.
6. Axmedova, D. (2023). BANKLARDA CHAKANA KREDITLASH AMALIYOTINI RAQAMLI TRANSFORMATSIYA QILISHNING HUQUQIY ASOSLARI. *Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil*, 1(7), 32-42.
7. Yuldashevich, X. S., & Abdullayevich, S. O. (2023). RAQAMLI IQTISODIYOTNING AHOLI TUMUSH FARAVONLIGIGA TA'SIRINI BAHOLASH. ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ, 22(10), 34-36.
8. Masharipova X. (2023) RAQAMLI MUHITDA MIJOZLARNING ENITIYOJLARI VA XATTI-HARAKATLARNI O'RGANISH UCHUN TAHLILIY USULLARNI QO'LLASH. *Journal of new century innovations* 30 (3), 203-207
9. Шержонов, Ш. (2024). ИЖТИМОЙ СУҒУРТА ОРҚАЛИ АҲОЛИНИ ИЖТИМОЙ ҲИМОЯ ҚИЛИШ. *Nashrlar*, 102-103.